

ZAMSH BO'YOG'

Zamshga o'xshaydigan teksturali qoplama yaratish uchun dekorativ matli bo'yoq.

Devorlar, shiftlar, naqshlar, karnizlar, moldinglar, yog'och buyumlar, mebellar uchun ishlataladi.

Muhim: material tigrostropik - tinch holatda quyuqlashishi va qovushqoqligi oshishi mumkin. Materialning qalinligini tiklash uchun qo'lida, past aylanishlarda mixer bilan aralashtiring yoki sheyerga qo'ying.

TEXNIK XUSUSIYATLAR

Yaltiroqlik darajasi – 2, chuqur matli

Chidamlilik sinfi – 1+

Sarflanishi – 1L/4M2

Qo'llanish sohasi – Ichki ishlar uchun

Qo'llash harorati – +10°C dan past bo'lmasligi kerak

Oraliq qurish vaqtı – 6-8 soat

Dastlabki polimerlanish – 24-48 soat

To'liq polimerlanish - 30 kungacha

Valik bilan tavsiya etilgan qatlamlar soni – 3 qatlam

Havo usulida qo'llashda tavsiya etilgan qatlamlar soni – 2 qatlam

Havosiz usulda qo'llashda tavsiya etilgan qatlamlar soni – 2 qatlam

Idish hajmi: 1 litr, 5 litr

SIRTNI TAYYORLASH

Devorlarni tayyorlash darajasi: Q3-Q4.

0,5 mm qalinlikdan boshlab, yakuniy shpaklyovka bilan uzlusiz yupqa qatlam yotqizish zarur. Sirt toza, quruq va mustahkam bo'lisi kerak. Chuqurchalar, silliqlash asbobining tirnalishi, shilinishlar, asbob izlari, soyalar ksbi kamchiliklarga yo'l qo'yilmaydi.

1. Grunt Praymerni suvalgan, maydalangan yoki shimuvchi yuzalarga surting. Ilgari bo'yagan devorlar, karnizlar, moldinglar, plintuslar, MDF, DSP, DVP uchun Grunt qoplama ishlataladi.

2. Rangli taglikka - zamsh rangi bilan qoplangan ikki qatlamlı dekorativ bo'yoq surtish.

Muhim: Qatlamlar soni kamaytirilganda, boshqa rangli taglik, mustaqil bo'yoqlar ishlatalganda yoki materiallar suyultirilganda, o'zgarishlar, yo'llar va bo'shliqlar paydo bo'lisi mumkin.

SUYULTIRILGAN MATERIAL SAQLANMAYDI

QOPLAMANING TEKISLIGI IKKINCHI QATLAM BILAN BAHOLANADI

ASBOBLAR SOVUNLI ILIQ SUV BILAN TOZALANADI

VALIK BILAN SURTISH

Taroqsimon yoki o'rta tukli (8-12 mm) mikrofibra yoki poliamiddan tayyorlangan valiklardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Shaxsiy afzalliklarga ko'ra, velurli valikdan foydalanish mumkin, u bilan ishlash osonroq bo'ladi, ammo ish jarayonining o'zi yanada mashaqqatli kechadi.

Kichik uchastkalarga tushirish uchun X va V-simon harakatlar tamoyillidan foydalaniladi.

Katta devorlar yuqoriga-pastga qaratib bo'yaladi, bunda ulanayotgan joylar bir tekisda tekislanadi.

Valik har doim Zamsh bilan to'ldirilgan bo'lisi muhim. Tarkibni tejamang, quruq valik bilan ishlashdan saqlaning. VALIK BILAN ISHLASHDA BO'YOQ SUYULTIRILMAGANI MA'QUL.

HAVO USULIDA QO'LLASH / HVLP

Ishni boshlashdan oldin materialni yaxshilab aralashtiring.

Material uzatishni maksimumga yaqinroq sozlang. Keyingi qatlam purkalishining o'zaro qoplanishi 50% bo'lisi kerak.

Material yaxshiroq ishlashi uchun uni 5-7% Konditsioner bilan suyultirish mumkin - bu oqish xususiyatini oshiradi, sirdagi g'adir-budurlikni kamaytiradi va purkash unumdorligini oshiradi. Sarfi: bir qatlamda 8-9 m² yuzaga ikki qavat qilib qo'llash tavsiya etiladi.

Wagner W 690/590 APPARATI UCHUN TEXNIK KO'RSATMANI KO'RING

HAVOSIZ USULDA QO'LLASH / AIRLESS

Materialni purkash uchun to'liq yaroqli, suyultirishni talab qilmaydi. Purkashdan oldin barcha filtrlarni olib tashlang.

Unumdorlikni oshirish uchun 0,021-0,023 diametrli kattaroq purkagichlardan foydalanish mumkin. Havosiz apparatning minimal unumdorligi 2,0 l/daqiqadan boshlanadi.

Super Finish 23 APPARATI UCHUN TEXNIK KO'RSATMANI KO'RING

HIMOYA

Mebel, oshxona fasidlari, eshiklar, hojatxonalar va ekstremal foydalanish yuklamasiga ega yuzalarni bo'yashda qo'shimcha himoya uchun ikki komponentli lakdan foydalanish tavsiya etiladi. Lakni Zamshaning dastlabki polimerizatsiyasidan so'ng qo'llash lozim.

Muhim: Lak ostidagi Zamshaning rangi to'ynroq bo'lisi mumkin. Oldindan sinov bo'yash o'tkazish zarur. Lak qoplangandan so'ng yuzaning yaltiroqlik darajasi taxminan 7 birlikka teng bo'ladi.

BO'YALGAN YUZANI PARVARISH QILISH

Bo'yalgan yuzadagi dog' va izlarni ehtiyyotkorlik bilan nam salfetkalar, yumshoq cho'tka, suv va boshqa kuchsiz maishiy tozalash vositalari yordamida tozalash mumkin.

Iflosliklarni yuqoridaan pastga yoki bir tomondan boshqa tomonga tekis harakatlar bilan yuvish kerak.

